

## **JADID SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY RAMZLAR**

---

**Ismatova Mohigul To'yevna**

*Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*[ismatovamohigul@gmail.com](mailto:ismatovamohigul@gmail.com)*

**Annotatsiya.** O'zbek adabiyotida qo'llangan ramziy obrazlar mifologiya, folklor va yozma adabiyotda o'ziga xos badiiy talqin qilingan. Jadid she'riyatida mazkur obrazga yuklangan ma'no yanada kengayganligini ko'rishimiz mumkin. Cho'lpon , Fitrat , Avloniy, Siddiqiy Ajziy, So'fizoda o'zbek she'riyatida simvolist shoir sifatida alohida mavqega ega ijodkorlar. Ularning she'rlarida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning ramziylashtirilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur maqolada jadid she'riyatida ramziy obrazlar orqali badiiy talqin qilingan ijtimoiy-siyosiy muammolarning ifodasi hamda shoir mahoratiga baho berilgan.

**Kalit so'zlar.** Ramz, folklor, mifologiya, mumtoz , Navoiy , farishta gul, istiqlol, mustamlaka, tong.

Ramzlar - shariyatda fikrni badiiy va obrazli talqin etish vositasi. Mumtoz adabiyot namoyondalari so'zlarni faqat to'g'ridan to'g'ri ma'nosi bilan ishlatibgina qolmay, so'z va ma'noga asoslangan badiiy san'atlar – ramzlardan unumli foydalanib, so'zlarning barcha uchun ma'lum ma'nolaridan tashqari yangi ma'nolarda ham qo'llaganlar. Shu orqali o'ziga xos estetik ta'sir etuvchi yangi tasvir yaratganlar. Ayniqsa, kundalik hayot hodisalari hamda diniy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarlar borki, ijodkorlar bunday tushunchalarni o'ziga xos ramzlar bilan ta'riflab , g'ayrioddiy assotsiatsiyalar yaratish orqali tilning estetik qadriyatga ega bo'lishini ta'minlaganlar . Bu esa so'zlarning ma'no chegaralarini kengaytirish orqali she'r tilini boyitishga xizmat qilgan.

E'tibor bersak, har bir davr she'riyatining o'sha zamon aksi yanglig' o'ziga xos ramzlari vujudga kelgan. Shu nuqtayi nazardan bunday tasvirlash orqali badiiy so'z san'atida ularning qo'llanishi ham bevosita davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy – axloqiy qarashlari bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Masalan, xalq og'zaki ijodi namunalarida ramziylik haqida gap ketganda, birinchi navbatda gul – ma'shuqa, bulbul – oshiq, raqib – tikan ramzlarida berilishi xotiramizga keladi. Bu timsollarda vaqt o'tishi bilan ma'noning kengayib borishi esa ular orqali boshqa ma'noni tashishiga olib keladi. Jumladan, folklorda "gul" ma'shuqa ramzi sifatida talqin etilgan bo'lsa, "gul" orqali ifodalangan mazkur ma'no mumtoz she'riyatda saqlanibgina qolmay, u boshqa ma'nolarda ham qo'llanganligi kuzatish mumkin. Masalan, o'zbek mumtoz she'riyatida "gul-varid" (atirgul) payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning timsoli bo'lib kelganligi fikrimizning yorqin misolidir.

"She'r - bu til ichida boshqa tilni yaratishdir" - deydi simbolist shoirlar. Albatta, kundalik hayotda aytmoqchi bo'lgan fikrlarni oddiy jumlalarda ifodalash mumkin, lekin ta'riflamoqchi bo'lgan "voqeligimiz" boshqa odamda biz foydalangan va ifodalagan ta'rif, tavsif so'z yoki timsolimizga qarab o'zgaradi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, har bir davr o'zining ramzlarini yaratadi. Demakki, badiiy adabiyotda yaratilgan barcha ramzlar o'z zamonasining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, ma'naviy – axloqiy va shu kabi turli muamolari bilan bog'liq.

Eng qadimgi yodgorliklarda ham majoziy tasvir, ramz-u o'xshatishlar orqali ijtimoiy-siyosiy masalar talqin qilingan. Buni quyida "Kul tegin" yodgorligidan keltirilgan parcha misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Qoning suvdek yugurdi,  
So'ngaking tog'dek yotdi.  
Qattiq o'g'il bolang qul bo'ldi,  
Sulu qiz bolang cho'ri bo'ldi.  
Bilmaganing uchun, tubanliging uchun  
Tog'am qog'on ucha ketdi,  
Boshiga qirg'iz qog'oning balbalin tikdim.

Parchadagi "suvdek yugurdi", "tog'dek yotdi", "qul bo'ldi", "cho'ri bo'ldi", "ucha ketdi" "balbalin tikdim" kabi birikmalarda tarixiy voqelikning badiiy talqini sifatida o'z davrning ijtimoiy – siyosiy hayotini jonlantirgan.

Ijtimoiy – siyosiy muammolar hamma zamonlarda asosiy masala bo'lgan. Biroq davr o'tishi bilan faqat bu muammolar o'zgaribgina qolmay, balki ularni ifodalash tarzi ham o'zgarib borgan. Jahon adabiyotida XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida shakllangan simbolizm adabiyot sahniga o'ziga xos ifoda tarziga ega bo'lgan oqim sifatida kirib keldi.

Simbolizmning asosiy xususiyati so'z va belgilar yordamida his-tuyg'ularning nozik qirralarini she'r qatiga singdirishdan iboratdir. Shuniing uchun simbolistlar she'riyatni "sokin qo'shiq" deb ta'riflaydilar.

Simbolistlar aniq bir obraz o'rnida uning sifati yoki ramziga urg'u berishni o'z ijodiy uslublarining muhim elementlaridan biri sifatida qabul qilganlar. Bunday yondashuv esa ularning asarlarida his -tuyg'ularni ta'sirchan ifodalash uchun samarali vosita bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek she'riyatida simbolizm XX asrning boshlarida rus va Yevropa simbolizmi ta'sirida kirib kelgan. Bu harakatlar o'zbek adabiyotida yangi uslub va obrazlarni shakllanishiga sabab bo'ldi.

XX asrning boshlarida shakllangan "jadid adabiyoti" o'zbek adabiyotining tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Jadid adabiyoti o'zbek adabiyoti tarixida yangi davrni boshlab berganligi ko'pgina tadqiqotlarda asoslab berilgan. Jadid adabiyotida

she'riyatida, birinchi navbatda, simvolizmga e'tibor kuchaydi. Albatta, bu bir necha muhim omillarga bog'liq:

Birinchi, jadid shoirlari o'zbek xalqining o'tmishi, madaniyati va qadriyatlarini qayta tiklashga intildilar. Simvolizm milliy ruhni ifodalashda yangicha usullarni olib keldi.

Ikkinchi, simvolizmning an'anaviy she'riyatdan farqi yangi shakllar va obrazlarni izlash imkonini beradi.

Uchinchi, tabiat unsurlari simvolik ma'noda ishlatilganligi, bu esa ijodkorlarga o'z his-tuyg'ularini tasvirlash va ifoda etishda yordam berdi.

Demak, XX asrning boshlaridagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar jadid mualliflarini yangicha fikrlash usullarini izlashga majbur qildi. Simvolizm esa ularga o'z ijodiy fikrlarini ramzlar orqali ifodalash imkonini berdi.

Jadid she'riyati o'zbek mumtoz adabiyoti hamda jahon adabiyotining asrlar davomida shakllangan an'alaridan unumli foydalandi. Biroq bu davr she'riyati o'ziga xos xususiyatlari, ko'lam va obrazlar tizimi bilan yangi davr she'riyatining xususiyatlarini o'zida aks ettirdi. Shu bois, jadid she'riyati o'zining ramziylik xususiyatlari bilan an'anaviy she'riyatdan farqlanadi. Ramziylik jadid shoirlarining ijodida muhim rol o'ynagan bo'lib, ular an'anaviy obrazlar va simvollarni yangi kontekstda qayta ishladilar.

Ta'kidlash kerakki, an'ana keng ma'noda davomiylik va yaxlitlikni o'z ichiga olgan tushunchadir. Davomiylik va yaxlitlik adabiyot nuqtayi nazaridan o'tmishda yaratilgan adabiyotning tarixiylikni anglash demakdir. Bu, shubhasiz, shaklning tarixiylik. Chunki an'ana adabiyot ichida faqat shakldagi davomiylik va yaxlitlikni ko'rsatsa, mazmun ijtimoiy sharoitga qarab o'zgarib boradi. Adabiyot milliy til orqali hosil qilingan ikki darajali tuzilmadir: to'g'ridan-to'g'ri ma'no (denotatsiya) va konnotatsiya darajasi.

Xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz she'riyatining o'lmas an'alaridan oziqlangan jadid she'riyati davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini badiiy talqin qilishda mazkur manbalardan unumli foydalandi. "Jadid adabiyoti – an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she'riyatda ro'baro' keldi".

Jadid adabiyotining mumtoz sarchashlardan oziqlanishi bilan bog'liq qator ishlar adabiyotshunosligimizda amalga oshirilgan. Jumladan, M. Tojiboevaning "Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'alari" nomli yirik tadqiqotida o'zbek mumtoz adabiyotida faol qo'llanilgan janr, uslub, timsol, vazn va qofiya xususiyatlarining yangi o'zbek adabiyotidagi ifodasi masalasi o'rganilgan. Albatta, biz adabiyotshunosligimizda amalga oshirilgan mazkur tadqiqotlarga tayangan holda jadid she'riyatida ijtimoiy-siyosiy muammolarning badiiy talqinida ramziylikning ifodasida folklor va mumtoz adabiyotning o'zini masalasini e'tibor qaratmoqchimiz.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda mifologik obrazlardan pari, dev, g'ul, farishta, shayton, malak faol qo'llangan. Bunday obrazlar orqali ko'pincha majoziy ishq, didaktik mavzular badiiy talqin qilingan. "Pari juda go'zal qiz suvratidagi mifik obraz bo'lib, folxklordagi kabi goh ijobiy, goh salbiy talqin qilinadi".

Ulug' shoir Alisher Navoiyning quyidagi baytida pari, malak, dev kabi mifologik obrazlar qo'llangan.

Ul pariy paykar malakvash men junundin devsor,  
Tutmasa yo'q ayb bu rasvoi olam birla uns.

Baytda muallif pari obrazini va uning ta'rifi, go'zalligi bilan bog'liq tasvirlarni oshiqning ruhiy holati bilan bog'liq holda badiiy talqin qiladi. Ma'shuqa – malaksifat. Oshiq –devsor. Ya'ni, u ma'shuqaning ishq (junun)da devsor (dev shaklli, devga o'xshash) bo'lib qolgan. Shu bois, parivash devsor (telba, rasvoi olam bo'lgan oshiq) bilan uns (yaqinlik) istamaydi.

Umuman, mumtoz g'azaliyotimizda, xususan, Alisher Navoiy lirikasida pari go'zallik, poklik timsolida talqin qilinsa, shayton mifonimi orqali kibr, riyokorlik, yozuvlik, adovat kabi illatlar tanqid qilinadi. Jumladan,

Qo'yg'il o'z lukni gar odam esang, inak shayton,  
Kibr ila nayladi ko'r, oncha ibodat aylab.

Baytda insondagi kibr-u havo, manmanlik (o'z luk) tanqid qilingan. Shoir o'z fikrining isboti uchun tamsil sifatida shayton ahvolini dalil keltiradi. Ya'ni shayton kibriga berilgani bois jannatdan lanatlangan holda quvilgan. Demak, baytda didaktik g'oya mifologik obraz orqali yuzaga chiqarilgan.

Jadid she'riyatida ham xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda qo'llangan pari, shayton, jin, dev, ajina, alvasti kabi qator mifologik obrazlar qo'llangan. Mazkur ramziy obrazlar davrning ijtimoiy illatlarini, xarobaga aylangan yurt qiyofasini badiiy chizgilarda berish uchun vosita sifatida qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu fikrimizni Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Maorifparvar g'aniylar qulog'ina" nomli she'rida qo'llangan an'anaviy mifologik obrazlarning o'ziga xos talqinida ham uchratish mumkin.

Bashorat, ey g'aniylar, judingiz manzuri olamdur,  
Ochilmish maktabingiz jahd amrozina malhamdur,  
Muqaddasdur, muborakdur, buyukdur, eng muazzamdur,  
Ko'rub shayton maorif uyini ma'yus purtamdur.  
Bu kunda sizlarga insu malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvonu jannatlar salom aylar.

Ma'lumki, jadidlar o'z faoliyatini turli yo'nalishlarda olib bordilar. Shulardan eng muhimi, millatni ma'rifatli, ilimli, o'z haq-huquqini taniydigan qilish edi. Avloniyning xalqona ohanglar hamda mumtoz she'riyat nafasi ufurib turgan yuqorida keltirganimiz she'rida "jahd amrozina (yara) malham" bo'lgan "muqaddas, muborak,

buyuk, eng muazzam” maktab va uni tashkil qiluvchi maorifparvarlari sharaflangan. Avloniy she’rda xurofot va ilsizlikni istovchi va millatni jaholat va tubanlikda saqlovchi kishilarni “shayton” obrazi orqali ramziylashtiradi.

Adabiyot tarixi va tadqiqotlarda malaklar, parilar, hurlar, farishtalar ruhlar olamining vakili sifatida tasavvur qilinganligining ta’kidlanganini ko’rish mumkin. “Bunday qarashlar turkiy xalqlarda islom dinining kirib kelishiga qadar shakllangan. Farishtalarning olov atrofida parvona bo’lishi va raqs tushishi kabi tasavvurlari xalqning e’tiqodiy ishonchlari bilan bog’liq. Albatta, bunday qarashlar zardushtiylik ta’limotining mahsulidir”. Mumtoz she’riyatda bu obrazlar, asosan, ma’shuqaning go’zalligi va husn-u tarovatini vasf qilish uchun qo’llangan. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy ijodiga mansub quyidagi misralarda pari, malak bilan bog’liq xalqona qarashlarga tayanilgan.

Gar o’lsam ul malaksiymo pariy hajrinda, aylang’ay

Pariy birla malak parvonadek sham’i mazoring’a.

Agar malaksiymo pariy hajrida o’lsam, pariy va malaklar mazorimdagi sham atrofida parovonadek aylanadi.

Avloniy qalamiga mansub misralarda ham parilar, hurlar haqidagi mifologik qarashlar bilan birga, diniy sarchashmalardan oziqlanish ham kuzatiladi.

Mumtoz she’riyatimizda shayton mifonimi nafs, kibr timsoli sifatida tasvirlangan bo’lsa, jadid she’riyatida mazkur obraz zamonning tarixiy-mafkuraviy sharoiti va zamon talabiga ko’ra yangilanganligini ko’rish mumkin. Bu bilan, bir tomondan, mumtoz she’riyatdagi diniy-mifologik ramziy obrazlar mafkuraviy targ’ibot uchun xizmat qilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan, yangi tashkil etilgan “sovet jamiyati”ning voqeliklarini tasvirlashda yangi mifologik tiplarning paydo bo’lishiga olib keldi.

Ma’lumki, mumtoz adabiyotning oziqlangan muhim sarchashmalardan biri diniy-irfoniy manbalar edi. Jadid she’riyati ilohiy manbalarni chetlab o’tmadi. Yuqoridagi parchada ham buni kuzatish mumkin. Ya’ni, she’rda fikr tasdig’i uchun diniy manbalarga murojaat qilingan. Oxirgi ikki misrada Muhammad (s.a.v)ning “Kim ilm talab qilish yo’liga yursa, Alloh unga jannat yo’lini oson qilib qo’yadi. Albatta, farishtalar tolibi ilmni rozi qilish uchun qanotlarini qo’yadi. Albatta, olimga osmondagi zotlar, yerdagi zotlar, hatto suvdagi baliqlar ham istig’for aytadi”, –degan muborak hadislarining mazmuni singdirilgan. Fikrning diniy manbalar orqali tasdiqlanishi esa jamiyat a’zolarining hushyorlikka chorlaydi.

Cho’lpon “ajinaning qo’shig’i”, “alvasti tovushi”, “dev botir o’yni”, “bo’rilar to’yi” kabi ifodalar orqali zo’ravonlik – mustamlakachilik iskanjasida qolgan Turkistonning ayanchli ahvolini badiiy va obrazli bo’yoqlar bilan ifodalaydi. Cho’lpon “chiroqlardan so’ngi nur ketgan” “qop-qorong’u kechaning” tasvirini berish uchun foydalangan obrazli ifodalarga yuklangan ramziylik shoir o’zi guvoh bo’lgan ijtimoiy-siyosiy tanazzulning badiiy talqinida juda o’rinli qo’llagan. Ko’rinib turibdiki,

Cho'lpon ochiq-oshkora bayon etish mumkin bo'lmagan fikrlarni folklor elementlari orqali badiiy va simbolik tarzda ta'riflaydi, zulm va zo'ravonlikka asoslangan tuzumga nisbatdan isyon qiladi, Vatan va millat qiyofasini badiiy tarzda ifodalaydi.

Jadid she'riyatida ko'p qo'llangan ramziy obrazlardan biri "yo'l"dir. Xalq ertaklarida yo'l ramzi, odatda, insonning hayotidagi tanlovi va maqsadlarini ifodalaydi va shu bilan birga yo'l kutilgan va kutilmagan oqibatlarga olib keladi. Yo'l ramzi, shunchaki, yo'l emas, balki hayotdagi maqsadlarga erishish uchun kurashishni ifodalaydi. Yo'l to'siqlar, muammolar va ularni yengish jarayoniga ishora ma'nosida ham qo'llaniladi.

Mumtoz o'zbek adabiyotida, xususan, ulug' shoir Alisher Navoiy she'riyatida ham "yo'l" ramziy obrazi ko'p qo'llangan. Albatta, bu obraz orqali hosil qilingan ramziy ma'nolar ko'pincha tasavvuf ta'limotiga aloqador. Jumladan, mayxona yo'li, fano yo'li, faqr yo'li, adam yo'li kabi qator birikmalar ramziy-timsoliy ma'noda qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunosligimizda "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda ham "yo'l xronotopi" maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan.

Erur maqsad yiroq, vodiylar uzun, tun tiyra, yo'l bo'rtoq

Bu yo'lda salb etib o'z luk yukin, o'zni sabukbor et.

Solik maqsadga erishishni istaydi. Va buning uchun mashaqqatli yo'lni bosib o'tishi kerak. Solik bu yo'lni "sabukbor" bosib o'tishi uchun esa "o'zlik yuki"dan qutulmog'i lozim. Yo'l – insoning ma'naviy sayri, Ilohni anglash yo'li, Haqiqat sirlaridan voqif bo'lishi yo'lidir. Shuning uchun ham shoir uning mashaqqatlaridan solikni ogohlantiradi.

Cho'lponning "Ulug' yo'lda" she'rida ham lirik qahramon ulug' maqsad sari yo'lga otlangan. Uning maqsadi "Sharqning eski chigalini yechish"dan iborat. Buning uchun "beliga kamarlar mahkam qilib bog'langan" yo'lovchining maqsadi aniq, parvozi baland. Shuning uchun u "qushlar yanglig' qanot qoqishni" istaydi:

Yo'limizda cho'llar, suvlar, dengizlar,

Bosuvchisin tanib bo'lmaslik izlar.

Shul izlarni bosib, dengizlar kechib,

Buyuk amal bilan boramiz bizlar.

Cho'lponning she'riyatida yo'l va yo'lovchi obrazlari erk va mustaqillik g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu obrazlar xalqning kurashi, kelajakka bo'lgan umidlarini ifodalaydi. Shoir o'z ijodi orqali, millatning mustaqillikka bo'lgan intilishini chuqur va ta'sirli tarzda aks ettiradi. Buni "Yurt yo'li" nomli she'rida ham kuzatishimiz mumkin. Shoir she'rda "Uzoq yo'lning yo'lchisimen, boramen// Istagimni bu yo'llardan olamen! tarzidagi iqrorlarida ham uning ulug' niyatlarga, ya'ni yurt mustaqilligiga erishishning "og'ir yo'llar"i haqidagi fikrlari badiiy talqin qilingan.

Uzoq... og'ir yo'lga chiqqan yo'lchimen,

Bu yo'llarda qilog'uzim yulduzdir.

Men yurtimning pok istakli kuchimen,  
U yulduzning tugalishi kunduzdir.  
Tomirlarim olov kabi qaynagan,  
Qonlarini kechmishlardan olmishdir.  
Bilagimda irg'ib, chopib o'ynagan,  
Unutmakim, oyoqlaring tolmishdir.  
Uzoq yo'lning yo'lchisimen, boramen,  
Istagimni bu yo'llardan olamen!..

Cho'lponshu millat farzandi sifatida o'z xalqi orzulari va umidlarini bir yo'lchi sifatida kuylagan. Yo'lchi – o'z xalqining erkinligi, mustaqilligi uchun kurashish maqsadi bilan qo'rqmay yo'lga chiqqan. Chunki u o'z “yurtining pok istakli kuchi”ga ishonadi.

Jadidchilik harakati va adabiyotining yetakchi vakili bo'lgan Abdurauf Fitrat she'rlarida ham “yo'l” tushunchasi ijtimoiy-siyosiy voqelikning ramziy-timsoliy qiyofasini chizishni maqsad qilgan. Jumladan, “O'qituvchilar yurtig'a” nomli she'rda “to'g'ri yo'l”, “haq yo'li” kabi birikmalar ham ramziy ma'no tashigan.

Biz erurmiz elning insonlik qonin qaynatg'uchi,  
Turk arslonin o'rinsiz uyqudan uyg'otg'uchi.  
Ma'rifat bayrog'i ostig'a yig'ildik barchamiz,  
Kim, bizi otganlarga haq yo'llarin ko'rsatkuchi...

Shoir she'rning har bir misrasida o'ziga xos ta'riflar va ifodalardan foydalanib, “to'g'ri yo'l”, “haq yo'li”ni topishning yagona vositasi ilm –ma'rifat deya ta'kidlaydi. “Turk arslonini uyqudan uyg'otish” xalqni o'zligini tanitish va anglatish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashi uchun kerak bo'lgan harakatga ishoradir. “Haq yo'l” – adolat va haqiqat yo'li bo'lib, bu yo'ldan borish, xalqning taraqqiyoti uchun muhim ekanini ko'rsatadi.

Ta'kidlash kerakki, mumtoz she'riyatimizda asrlar davomida qo'llanib kelingan gul, bulbul, yor, ag'yor kabi obrazlar o'zining estetik ma'nosini saqlab qolgan. Jadid she'riyatida yangi ma'no va yangi kontekstda o'zgacha ohang kasb eta boshladi. Masalaning bu jihatiga professor B. Qosimov Abdulla Avloniy she'riyati misolida qisman munosabat bildirib o'tgan edi. Mazkur obrazlar davrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini yangi yo'nalishlarida ifodalash uchun xizmat qila boshladi.

An'anaviy ishq mavzusini Vatan va millat taqdiri bilan bog'lab badiiy talqin qilish Avloniy g'azaliyotida ham kuzatiladi. Buni shoirning “Maxotabim qalam” sarlavhali g'azalida ham kuzatishimiz mumkin. Shu o'rinda bir jihatni ta'kidlash lozim, Avloniy qalamiga mansub barcha g'azallar sarlavhalangan. Albatta, bu bilan shoir ma'lum bir maqsadni ko'zlagani aniq. Sarlavha, birinchidan, asosiy mavzuni yetkazuvchi vosita, ikkinchidan, g'azalning muhim qismi bo'lib, u mazmun va shoirning individual uslubini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

G'azalda da'vatkor ruh ustivor. Shoir har bir baytda zamondoshlari – “sohibi urfon” ahliga xitob qilib, “Vatan bog'inda faryod et”, “nuri ilma irshod et”, “jahl changolidin ozod et”, “millatni dilin shod et”... kabi chaqiriqlar orqali millat, Vatan ishq bilan yashashga chorlaydi. Bu g'azalning maqtasida yanada yorqinroq ko'rinadi:

Vatan mehri agar bo'lsa, dilingda ishq savdosi,

Otil nuri maorifga, o'zingni misli Farhod et!

Mumtoz she'riyatda Farhod obrazi ko'p tilga olingan. Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, Farhod “Majnunona – Aflotun ishq sohibi”, “Asarning bosh qahramoni bo'lgan Farhodni Navoiy komil bir inson tipida oladir”. Demak, Avloniy Vatanga bo'lgan ishqni Farhod timsolida berishi ham bejiz emas. Shoir zamondoshlarini “nuri maorif”ga Farhoddek otilishini istaydi.

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,

Har kim sening qadring bilmas - aqli pastdur.

Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,

Sening darding boshqa dardni tortib olur.

Abdulla Avloniy “Vatan” nomli she'rida Vatan ishq muqaddasligini, bu ishq barcha dardlarga da'vo ekanligini ta'kidlaydi. She'r 32 misradan iborat bo'lib, barmoq vaznida yozilgan. Ammo she'rning qofiyalanishi masnaviy shaklida yozilgan. Katta hajmli she'rlarda monorifma – yakka qofiyachilikni saqlab qolish ancha murakkab. Muallif bunda masnaviy shaklining xususiyatlarini inobatga olgan. Chunki masnaviy shakli yirik hajmli mavzularni keng va to'liq ifodalash, shuningdek, fikrni rivojlantirish imkonini beradi.

Avloniy Vatan tuprog'ining muqaddasligi undagi noz-u ne'matlar bilan bog'lab tasvirlaydi. Vatanni onaga qiyoslaydi.

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!

Javlon urub yashaydurg'on xonamizsan!

She'rda Vatan ishq, muqaddas va ulug' bir hissiyot sifatida ta'riflanadi. Lirik qahramon ona kabi muqaddas maskanni asray olmaganliklaridan iztirobga tushadi va “uni sotib pul qilgan”larni boyqushga o'xshatadi. Shoir Vatanning ayanchli ahvolga tushib qolishining sababini tarbiyasizlik va ilmsizlikda deb biladi.

Umuman olganda, jadidlar adabiyotga faqatgina san'at emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarning vositasi, jamiyatdagi muammolarni “ko'tarish” va ularni hal qilishga ko'mak beruvchi omil sifatida qaradilar. Bu davrda adabiyoti realizm printsiplariga asoslangan namunalar bilan birga, hayotning asl holatini va insonlarning haqiqiy his-tuyg'ularini real aks ettirishga intildi. Jadid she'riyati ta'sirida o'zbek adabiyotida an'anaviy obrazlar yangi ma'nolar bilan boyitildi, ularning mazmuni zamon talablariga moslashtirildi, shu bilan birga yangi obrazlar va ramzlarning paydo bo'lishi jadid adabiyotining rang-barangligi va hayotiyligini ta'minladi.

Jadid adabiyoti Ramzlar paydo bo'lishi, tarqalishi va umumiylik kasb etishi orqali jamiyatning madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadigan asarlar yaratib berdi.

Jadid she'riyatida ramziylik an'ana va ijodiylikning murakkab sintezi sifatida namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu davrda ramziylik xalq og'zaki ijodi hamda diniy-irfoniy manbalar asosida shakllandi. Mumtoz she'riyatning timsollar tizimi jadid adabiyotida ham mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazaridan yangi ma'no kasb eta boshladi. Ramziy timsollar real hayotning, ijtimoiy tuzum voqealari bilan bog'lanadi. Bu esa jadid she'riyatining o'ziga xos jihati sanaladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. –T.: Yangi asr avlodi. 2007.

Cho'lpon. Yana oldim sozimni. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.

Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. T.: O'qituvchi, 1997.

Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. "Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: – 2004.

Eshonqulov H. Samovot – ishq mahzari. Istiqlool davri navoiyshunosligi. XXX jildlik. XXIII jild –T.: "Tamaddun", 2021.

Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.